

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

PEDAGOGIKA FANLARI

FORSAYT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONLARI BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Mirzaxo'jayeva Dilraxon To'liq qizi

O'zNPU tayanch doktoranti

Email: sulejmanhodzaevic@pulat.com

Tel: +998 99 867 86 88

ORCID: 0009-0007-7700-7699

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada farsayt texnologiyalarining zamonaviy ta'lim tizimidagi nazariy-metodologik asoslari, ularning pedagogik salohiyati hamda talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishdagi o'rni kompleks ravishda tahlil qilingan. Tadqiqotda farsayt yondashuvi ta'limni strategik rejalashtirish, istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan prognozlash, muqobil ssenariylarni modellashtirish va ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etishning samarali vositasi sifatida yoritilgan. Xalqaro ilmiy manbalar, ilg'or xorijiy tajribalar hamda zamonaviy pedagogik tadqiqotlar asosida farsayt metodlarining tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishdagi imkoniyatlari, ularning kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'unligi, talabalarda refleksiv, prognostik va loyihaviy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, farsayt texnologiyalarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning samaradorligi, mavjud cheklovlari va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari farsayt texnologiyalari ta'limni modernizatsiya qilish, tarbiyaviy jarayonlar sifatini oshirish hamda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini kuchaytirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Farsayt texnologiyalari, ta'limni strategik rejalashtirish, tarbiyaviy faoliyat, kelajak ssenariylari, kompetensiyaviy yondashuv, Delphi usuli, trend tahlili, pedagogik innovatsiya

ANALYSIS OF SCIENTIFIC RESEARCH ON PREPARING STUDENTS FOR EDUCATIONAL ACTIVITIES BASED ON FORESIGHT TECHNOLOGIES

Mirzakhojayeva Dilraxon To'liq qizi

Basic doctoral researcher of Uzbek National Pedagogical University

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and methodological foundations of foresight technologies in the modern education system, their pedagogical potential, and their role in improving the process of preparing students for educational and воспитательная activities. The foresight approach is considered an effective tool for strategic educational planning, forecasting future development trends, modeling alternative scenarios, and introducing innovative approaches into the educational process. Based on international scientific sources, advanced foreign experience, and contemporary pedagogical studies, the paper reveals the possibilities of foresight methods in organizing educational activities, their correlation with the competency-based approach, and their significance in developing students' reflective, prognostic, and project-oriented thinking. In addition, the study analyzes the effectiveness of implementing foresight technologies in educational practice, their existing limitations, and promising directions for further development. The research findings demonstrate that foresight technologies have substantial scientific and practical value in modernizing education, improving the quality of educational processes, and strengthening the professional and pedagogical training of future specialists.

Keywords: foresight technologies, strategic planning in education, educational activity, future scenarios, competency-based approach, Delphi method, trend analysis, pedagogical innovation.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i13/n20>

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida raqobatbardosh, innovatsion fikrlaydigan va strategik qaror qabul qila oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash dolzarb masalalardan biridir. Shu nuqtayi

nazardan farsayt texnologiyalari ta'lim tizimida istiqbolli yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Forsayt yondashuvi nafaqat kelajakni bashorat qilish, balki uni ilmiy modellashtirish, muqobil ssenariylar asosida loyihalash va strategik qarorlar ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa pedagogik jarayonni mavjud holat bilan cheklab qo'ymasdan, uning kelajakdagi ehtimoliy rivojlanish trayektoriyalarini ham nazarda tutgan holda tashkil etish imkonini yaratadi.

O'zbekistonlik olimlar N. Xodjayev, M. Ochilov va U. Mahkamov pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish jarayonida kelajakni oldindan prognoz qilish yondashuvlarining ahamiyatini ta'kidlaydilar [1; 45–52-b.]. Ularning fikricha, pedagogik tizimni modernizatsiya qilishda strategik fikrlash muhim o'rin egallaydi. Mazkur yondashuv bugungi ta'lim muhitida ayniqsa dolzarb bo'lib, nafaqat mavjud pedagogik vaziyatlarni, balki kelajakdagi ijtimoiy-pedagogik o'zgarishlarni ham oldindan ko'ra bilishni talab etadi. Shu jihatdan farsayt texnologiyalari talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish, prognozlash va loyihalashning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Forsayt texnologiyalarining nazariy-metodologik asoslari

Forsayt texnologiyalari ilmiy adabiyotlarda kelajakni tizimli tahlil qilish, ehtimoliy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash va ularni turli ssenariylar asosida modellashtirish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv dastlab Yevropa ilmiy maktablarida shakllangan bo'lib, keyinchalik Rossiya va MDH davlatlari tadqiqotlarida ham faol rivojlangan. Forsaytning asosiy vazifasi aniq bashorat berishdan ko'ra, turli ehtimoliy rivojlanish variantlarini ishlab chiqish, xavf va imkoniyatlarni baholash hamda strategik qarorlar uchun ilmiy asos yaratishdan iborat.

Rossiyalik olim I. V. Bestujev-Lada farsaytni ijtimoiy jarayonlarning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda oldindan ko'ra bilish metodologiyasi sifatida izohlaydi [6; 74–82-b.]. A. V. Sokolov esa uni strategik rejalashtirishning ajralmas qismi sifatida baholab, ta'lim tizimida qo'llash zarurligini asoslaydi [7; 95–103-b.]. O'zbek olimi Sh. Shermuhamedov farsayt yondashuvini pedagogik innovatsiyalar bilan bog'lab, uni ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi mexanizm sifatida talqin etadi [4; 52–60-b.]. Bu yondashuv talabalarda standart fikrlashdan chiqib, muqobil yechimlar topish, noaniq vaziyatlarda qaror qabul qilish va pedagogik muammolarni ko'pvariantli tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik mohiyati

Tarbiyaviy faoliyat shaxsning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi murakkab pedagogik jarayon bo'lib, bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligida muhim o'rin tutadi. Talabalarni mazkur faoliyatga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u shaxsda faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy faoliyatga yo'naltirilgan kasbiy, kommunikativ, refleksiv va prognostik kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

J. Yo'ldoshev tarbiyaviy faoliyatni shaxsning ijtimoiylashuvi va ma'naviy kamolotini ta'minlovchi tizimli jarayon sifatida izohlaydi [5; 110–118-b.]. R. G. Safarova esa tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyatini ta'kidlaydi. V. A. Slastenin tarbiyaviy faoliyatni pedagogik tizimning asosiy komponentlaridan biri sifatida ko'rib, uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasiga bog'liqligini qayd etadi [9; 210–220-b.]. Ushbu qarashlar asosida aytish mumkinki, tarbiyaviy faoliyat samaradorligi nafaqat o'qituvchining bilim darajasi, balki uning innovatsion-pedagogik tafakkuri, pedagogik

vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish va ularga mos strategik yechimlar ishlab chiqish qobiliyatiga ham bevosita bog'liqdir.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili

Rossiya ilmiy maktabida forsait texnologiyalari keng o'rganilgan bo'lib, A. N. Tokarev, E. A. Semenov va D. A. Novikov kabi olimlar uni ta'lim tizimini modernizatsiya qilish vositasi sifatida tahlil qilganlar [8; 120–128-b.; 10; 66–74-b.]. Ularning tadqiqotlarida forsait ta'lim strategiyasini ishlab chiqish, pedagog kadrlar tayyorlashni prognoz qilish hamda innovatsion ta'lim muhitini yaratish yo'nalishlarida qo'llanilgan.

Xalqaro tadqiqotlarda, xususan I. Miles, L. Georghiou, R. A. Slaughter va W. Bell ishlarida, forsait yondashuvi ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni kelajak kasblariga tayyorlash va ijtimoiy moslashuvchanlikni kuchaytirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilgan [11; 55–63-b.; 12; 102–110-b.; 13; 88–96-b.; 14; 140–148-b.]. UNESCOning "Futures of Education: Learning to Become" hisobotida ham ta'limning kelajak modeli sifatida uzoq muddatli strategik fikrlash, ssenariylash va ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish zarurligi ta'kidlanadi [15; 30–38-b.]. Ushbu manbalar forsait texnologiyalarining tarbiyaviy faoliyatga tatbiqi talabalarda nafaqat mavjud pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, balki kelajakdagi tarbiyaviy muammolarni oldindan ko'ra bilish va ularga mos strategiyalar ishlab chiqish kompetensiyasini ham shakllantirishini ko'rsatadi.

O'zbekiston ilmiy maktabida esa forsait texnologiyalari bo'yicha tadqiqotlar so'nggi yillarda faollashgan. M. M. Quronov, B. X. Karimov va boshqa olimlar pedagogik innovatsiyalar hamda tarbiyaviy jarayonni modernizatsiya qilish bilan bog'liq izlanishlar olib borganlar [2; 63–70-b.; 3; 88–95-b.]. Xususan, M. Quronov ssenariyli yondashuvning talabalarda analitik fikrlashni rivojlantirishdagi rolini ta'kidlaydi [2; 63–70-b.]. B. Karimov esa forsait texnologiyalarini oliy ta'lim tizimida qo'llash orqali pedagogik faoliyat sifatini oshirish mumkinligini asoslaydi [3; 88–95-b.]. Ushbu tadqiqotlar forsait yondashuvining pedagogik tayyorgarlikni takomillashtirishdagi ilmiy-amaliy salohiyatini tasdiqlaydi.

Forsait texnologiyalarining tarbiyaviy jarayondagi o'rni

Forsait texnologiyalari tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda bir qator pedagogik afzalliklarga ega. Birinchidan, ular talabalarni kelajakdagi pedagogik vaziyatlarni oldindan tahlil qilish, ularni modellashtirish va ehtimoliy natijalarni baholashga o'rgatadi. Ikkinchidan, forsait yondashuvi jamoaviy ishlash, ekspert tahlili va muqobil qarorlar ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Uchinchidan, mazkur texnologiyalar innovatsion va strategik fikrlashni shakllantirib, tarbiyaviy faoliyatni reaktiv emas, balki proaktiv asosda tashkil etish imkonini beradi.

I. V. Bestujev-Lada tomonidan ta'kidlangan ssenariyli tahlil talabalarda pedagogik vaziyatlarni nafaqat tahlil qilish, balki ularning rivojlanish istiqbollari oldindan modellashtirish kompetensiyasini shakllantiradi [6; 74–82-b.]. A. V. Sokolov esa bu jarayonni kollektiv intellektual prognozlash bilan bog'laydi [7; 95–103-b.]. O'zbekistonlik olim U. Mahkamov ta'lim jarayonida innovatsion fikrlashni rivojlantirish forsait texnologiyalarining muhim natijalaridan biri ekanligini qayd etadi [1; 45–52-b.]. Shu jihatdan forsait texnologiyalari tarbiyaviy faoliyatni kelajakka yo'naltirilgan, moslashuvchan va tizimli modelga aylantiradi.

Tadqiqot metodlari

Mazkur tadqiqotda forsait texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish va talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonini o'rganishda bir qator ilmiy-metodik yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, tizimli tahlil, ssenariyli yondashuv, SWOT-tahlil, Delfi metodi va modellashtirish usullari asosiy tadqiqot vositalari sifatida tanlab olindi.

Delfi metodi ekspertlarning kelajakdagi pedagogik tendensiyalar haqidagi fikrlarini tizimlashtirish va umumlashtirish imkonini berdi. SWOT-tahlil esa forsait texnologiyalarining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda xavf-xatarlarini aniqlashga xizmat qildi.

Ssenariyli yondashuv ehtimoliy rivojlanish variantlarini ishlab chiqish va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilashga yordam berdi [2; 63–70-b.; 10; 66–74-b.]. Modellashtirish esa olingan natijalarni yaxlit pedagogik tizim sifatida tasavvur etish, ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini yaratdi. D. A. Novikov tizimli yondashuvni murakkab pedagogik jarayonlarni tahlil qilish va boshqarishning samarali usullaridan biri sifatida izohlaydi [8; 120–128-b.], bu esa mazkur tadqiqotning metodologik asosini mustahkamlaydi.

Muammolar va cheklovlar

Ilmiy tadqiqotlar tahlili forsait texnologiyalarini ta'lim amaliyotiga joriy etishda qator muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Ular qatoriga metodik qo'llanmalar yetishmasligi, pedagoglarning forsait yondashuvi bo'yicha tayyorgarlik darajasining pastligi, amaliy tajribaning kamligi va texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi kiradi. Bu holatlar forsait texnologiyalarining ta'lim tizimida keng va samarali qo'llanilishiga to'sqinlik qilmoqda.

Sh. Shermuhamedov bu muammolarni bartaraf etish uchun pedagog kadrlarni maxsus forsait treninglaridan o'tkazish zarurligini ta'kidlaydi [4; 52–60-b.]. Shu nuqtayi nazardan, forsait yondashuvini ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun yagona metodik majmua va raqamli o'quv platformalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tizim ssenariyli tahlil, SWOT, Delfi va boshqa tegishli metodlarni kompleks tarzda birlashtirishi lozim. Shuningdek, pedagog kadrlar uchun amaliyotga yo'naltirilgan malaka oshirish dasturlarini joriy etish, interaktiv mashg'ulotlar, simulyatsion muhit va elektron resurslardan foydalanishni kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, forsait texnologiyalarini talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayoniga tatbiq etishda metodik va tashkiliy muammolar bilan bir qatorda, pedagogik-psixologik hamda prognostik xarakterdagi cheklovlar ham mavjud. Xususan, talabalarda kelajak ssenariylarini ishlab chiqish, ehtimoliy pedagogik vaziyatlarni modellashtirish va muqobil qarorlarni asoslash ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi forsait metodlarining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, aksariyat oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish an'anaviy rejalashtirish asosida olib borilayotgani sababli, forsait yondashuvini amaliyotga integratsiya qilishda muayyan institutsional inertsia kuzatiladi. Yana bir muhim cheklov – bu forsait metodlarini baholash mezonlari va diagnostik indikatorlarining pedagogik amaliyotda yetarli darajada ishlab chiqilmaganligidir. Natijada talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda forsait texnologiyalarining real ta'sirini o'lchash va monitoring qilish murakkablashadi. Shu bois mazkur texnologiyalarni joriy etishda metodik ta'minotni kuchaytirish, pedagoglar va talabalar uchun maxsus trening dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tarbiyaviy forsait laboratoriyasi doirasida tajriba-sinov maydonlarini tashkil etish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa

Forsayt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga, xususan talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga tatbiq etish bo'yicha olib borilgan nazariy tahlillar ushbu yondashuv zamonaviy pedagogikaning istiqbolli va rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Forsaytning mohiyati kelajakni aniq bashorat qilish emas, balki ehtimoliy rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda tahlil qilish va ular asosida strategik pedagogik qarorlar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalari forsayt texnologiyalari talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda ularning kelajak pedagogik vaziyatlarni oldindan ko'ra olish, tahlil qilish va muqobil yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirishini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida kompetensiyaviy fikrlashni kuchaytirib, talabalarni faqat bilim oluvchi emas, balki pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida shakllantiradi. Shu bilan birga, forsayt texnologiyalari tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda ssenariyli yondashuv va strategik rejalashtirish vositasi sifatida pedagogik jarayonni yanada moslashuvchan, innovatsion va samarali tashkil etish imkonini beradi. Demak, forsayt texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash sifatini oshirish, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik tizimni takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xodjaye N., Ochilov M., Mahkamov U. Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 214 b.
2. Quronov M. M. Ta'lim jarayonida ssenariyli yondashuv asoslari. – Toshkent: TDPU nashri, 2019. – 176 b.
3. Karimov B. X. Oliy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021. – 198 b.
4. Shermuhamedov Sh. Pedagogik innovatsiyalar va kreativ yondashuvlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 210 b.
5. Yo'ldoshev J. G'. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 320 b.
6. Бестужев-Лада И. В. Социальное прогнозирование и форсайт-исследования. – Москва: Экономика, 2016. – 356 с.
7. Соколов А. В. Форсайт как инструмент стратегического планирования. – Москва: Наука, 2018. – 290 с.
8. Новиков Д. А. Системный анализ в образовании. – Москва: URSS, 2019. – 310 с.
9. Сластенин В. А. Общая педагогика. – Москва: Академия, 2017. – 480 с.
10. Токарев А. Н. Педагогическое прогнозирование и сценарный подход. – Санкт-Петербург: Питер, 2020. – 240 с.
11. Miles I. The Foresight Approach in Education Systems. – London: Routledge, 2017. – 198 p.
12. Georghiou L. Foresight and Policy Development. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018. – 250 p.
13. Slaughter R. A. Futures Education: From Forecasting to Foresight. – Brisbane: Futures Foundation, 2016. – 220 p.
14. Bell W. Foundations of Futures Studies. – New York: Routledge, 2019. – 340 p.
15. UNESCO. Futures of Education: Learning to Become. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 120 p.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.